MARKAZIY OSIYODA MINTAQAVIY HAMJAMIYAT SHAKLLANISHI: REALIZM VA NATSIONALIZM O'RTASIDAGI DIALEKTIKA

Xursanova Zuxra Bahodir qizi
Xalqaro munosabatlar yo'nalishining 3-bosqich talabasi
Diplomat University
E-mail: xursanovazuxra5@gmail.com
Tel: +998 88 290 90 29

Annotatsiya

Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy, madaniy va sivilizatsion jihatdan o'zaro bog'liq hududdir. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston xalqlari umumiy tarixiy o'tmish, o'xshash madaniy muhit va qadriyatlarga ega mintaqaviy qo'shnilar hisoblanadi. Shunga qaramay, mazkur hududda yagona identitet va to'liq barqaror hamjamiyat hali to'la shakllanmagan. Mazkur maqolaning maqsadi - Markaziy Osiyo identiteti shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy siyosiy va ijtimoiy omillarni tahlil qilish, xususan siyosiy realizm va natsionalizmning ushbu jarayondagi rolini ochib berishdan iborat.

***Kalit so'zlar**: Siyosiy Realizm, Natsionalizm, Post-gegemon mintaqaviylik, Jahon Jamiyati, Xalqaro Jamiyat*

Abstract

The Central Asian region is historically, culturally, and civilisationally interconnected. The people of Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan are regional neighbors with a common historical past, a similar cultural environment, and values. Nevertheless, a unified identity and a fully stable community have not yet been fully formed in this region. The purpose of this article is to analyze the main political and social factors influencing the formation of

Central Asian identity, specifically to reveal the role of political realism and nationalism in this process.

Keywords: *Political Realism, Nationalism, Post-hegemonic regionalism, World Society, International Society*

Аннотация

Центральноазиатский регион является исторически, культурно и цивилизационно взаимосвязанной территорией. Народы Узбекистана, Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана и Туркменистана являются региональными соседями, имеющими общее историческое прошлое, схожую культурную среду и ценности. Тем не менее, единая идентичность и полностью устойчивое сообщество в этом регионе еще не сформировались. Цель данной статьи - проанализировать основные политические и социальные факторы, влияющие на формирование идентичности Центральной Азии, в частности, раскрыть роль политического реализма и национализма в этом процессе.

Ключевые слова: *Политический реализм, Национализм, Постгегемонистская региональность, Мировое сообщество, Международное сообщество*

KIRISH

Mintaqaviy hamjamiyat shakllanishini tushuntirishda xalqaro munosabatlar nazariyalarini anglash va ma’lum bir holatda qanday ko’zga tashlanayotganini kuzatish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Siyosiy realizm doirasida davlatlar xalqaro tizimning anarxik tabiatida faoliyat yurituvchi asosiy aktorlar sifatida talqin qilinadi va ular, birinchi navbatda, o‘z xavfsizligi hamda suverenitetini ta’minlashga qaratilgan strategiyalarni ustuvor deb biladi. Ushbu yondashuvga

muvofiq, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik ko‘pincha vaqtinchalik va instrumental xarakterga ega bo‘lib, u barqaror institutsional integratsiyaga olib kelmasligi mumkin. Bundan tashqari, Natsionalizm (Millatchilik) nazariyasi mintaqaviy identitet shakllanishiga ichki ijtimoiy-siyosiy omillar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Mustaqillikdan so‘ng Markaziy Osiyo davlatlarida milliy davlat qurilishi jarayoni jadallashib, tarixiy narrativlar, til siyosati va madaniy identitetni qayta shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi. Natijada, har bir davlat o‘zining alohida milliy identitetini mustahkamlashga intilib, bu jarayon mintaqaviy identitetning ikkilamchi darajaga tushib qolishiga olib keldi. Mazkur ikki yondashuvning o‘zaro ta’siri Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamjamiyat shakllanishini murakkab va ko‘p qatlamli jarayonga aylantiradi. Siyosiy realizm davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni cheklovchi tashqi strukturaviy omil sifatida namoyon bo‘lsa, natsionalizm ichki ijtimoiy ong darajasida mintaqaviy birlikni susaytiruvchi omil sifatida amal qiladi. Biroq zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan shu ikki kuchning o‘zaro ta’siri ularning to‘qnashuvi emas, balki dialektik birligi - mintaqaviy identitetning noyob va murakkab shakllanish mexanizmini yaratmoqda. Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida mintaqaviy identitet shakllanishi uchun muayyan ijtimoiy asoslar mavjud. Avvalo, mintaqaning umumiy tarixiy taraqqiyoti, xususan Buyuk Ipak yo‘li davri xalqlar o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga xizmat qilgan. Shuningdek, madaniy yaqinlik, urf-odatlar va an’analarning o‘xshashligi ham muhim omil hisoblanadi. Til jihatidan turkiy xalqlar o‘rtasidagi yaqinlik, diniy jihatdan esa islom dinining keng tarqalganligi mintaqaviy birlikni mustahkamlovchi omillar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy qadriyatlar - oila, jamoa va mehmondo‘stlik kabi tushunchalar mintaqa xalqlari orasida umumiylikni kuchaytiradi.

ASOSIY QISM

I. Siyosiy Realizmning ta’siri:

G’oyaviy asoslarga nazar tashlasak klassik siyosiy realizm (Morgenthau, Waltz) davlatlarning xalqaro munosabatlarda o‘z kuchini maksimal darajada oshirish va xavfsizlikni ta’minlashga intilishini asosiy tamoyil deb biladi. An’anaviy realizmning bashorati bo’yicha Markaziy Osiyoda bu yondashuv davlatlar o‘rtasidagi raqobat asosida mintaqaviy hamkorlikka to‘sqinlik qilishi kerak. 1990-2000-yillar oralig’ida bu bashorat qaysidir ma’noda o‘zini oqladi: Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi mintaqada eng ilg’or bo’lishga qaratilgan raqobat, Tojikiston va Qozog’iston Respublikalari bilan suv va energiya resurslari bo‘yicha kelishmovchiliklar, chegara nizolari mintaqaviy integratsiyani deyarli imkonsiz qildi. Qozog‘iston “Eurasian Bridge” konsepsiyasi orqali o‘z tashqi siyosatini ko‘p vektorli diplomatiya asosida shakllantirib, Yevropa va Osiyo o‘rtasida geoiqtisodiy va geosiyosiy ko‘prik vazifasini bajarishga intildi. Ushbu strategiya doirasida mamlakat bir vaqtning o‘zida Eurasian Economic Union (EEU), Shanghai Cooperation Organisation (SCO) va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan faol hamkorlikni rivojlantirdi. Natijada, Qozog‘iston mintaqada nisbatan yuqori darajadagi institutsional integratsiyaga erishdi va tashqi aktorlar bilan muvozanatli aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Bunga qarama-qarshi ravishda, O’zbekiston uzoq vaqt davomida “Independent Actor” modeli asosida harakat qilib, tashqi siyosatda suverenitet va strategik avtonomiyani ustuvor deb bildi. Bu yondashuv selektiv hamkorlikni, ya’ni xalqaro tashkilotlar va integratsion loyihalarda faqat milliy manfaatlarga mos keladigan va ko‘pincha qayta ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lgan majburiyatlarni qabul qilishni nazarda tutadi. Masalan, O‘zbekistonning ayrim integratsion tuzilmalarga kirish va chiqish tajribasi ushbu moslashuvchan, ammo ehtiyotkor strategiyaning amaliy ifodasi sifatida ko‘riladi. Mazkur ikki modelni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, Qozog‘istonning ko‘p vektorli va institutsional integratsiyaga ochiq siyosati mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qilsa, O‘zbekistonning mustaqil va selektiv yondashuvi

davlat manfaatlarini maksimal darajada himoya qilishga qaratilgan edi. Bu esa siyosiy realizm tamoyillarining amaliy ifodasi sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu tariqa, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamjamiyat shakllanishi yagona model asosida emas, balki turli davlatlarning strategik tanlovlari va ularning realizmga asoslangan tashqi siyosiy yondashuvlari o‘zaro muvozanati natijasida kechdi. Natijada, mintaqaviy hamjamiyat shakllanishi sekinlashadi. Siyosiy realizm mintaqada hamkorlikni emas, balki ehtiyotkorlik va muvozanatni rag‘batlantiradi. Biroq, 2016-yildan keyin real hayot nazariyani murakkablashtirdi. Siyosiy realizmning klassik mantig‘iga zid ravishda, Markaziy Osiyo davlatlari raqobatni pasaytirib, hamkorlikni kuchaytirmoqda. Ayta olamizki 2017-yilda O‘zbekistonda hokimiyat almashinuvi va Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbari lavozimiga saylanishi mintaqa siyosatida “ochiqlik” va “hamkorlik” paradigmasiga o‘tishga olib kelgan asosiy qo’zg’atuvchi vazifasini bajardi. Yillar davomida qo’shnilari bilan ehtiyotkor siyosat yuritgan O’zbekiston, endilikda Markaziy Osiyo davlatlari bilan “Yaqin Qo’shnichilik” siyosatini yuritish, chegara, suv va boshqa integratsiyaga jiddiy to’siq bo’lib turgan muammolarga birgalikda yechim izlashga harakat qilmoqda. Yana bir sabablardan biri 2014-yilda neft narxining keskin tushishi resurslarga boy davlatlarni (Qozog‘iston, Turkmaniston) o‘z iqtisodiyotlarini diversifikatsiya qilish va qo‘shnilar bilan hamkorlik qilish zaruratiga duch keltirdi. Bu o‘zgarish natijasida 2017–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo hajmi 2.6 baravar o‘sib, taxminan 7 milliard AQSh dollariga yetdi. Xususan mintaqada ikki yetakchi davlatlar hisoblanmish Qozog‘iston esa O‘zbekiston bilan savdo hajmini ikki baravarga oshirib, 4 milliard dollarda oshdi. Zamonaviy tadqiqotlar Markaziy Osiyoda “post-gegemon mintaqaviylik” (post-hegemonic regionalism) shakllanayotganini ko‘rsatmoqda. Bu mintaqaviy integratsiya va hamkorlik jarayonlari endi bitta kuchli davlat yoki gegemonning ustun ta’siri ostida emas, balki ko‘p qutbli, turli manfaat va yetakchilik markazlari o‘rtasida shakllanayotgan davrni ifodalaydi. Bu yerda hech bir davlat na ichki, na tashqi mintaqada mutlaq

ustunlikka ega emas. Qozog‘iston va O‘zbekiston bu hududda nufuzli aktorlar, ammo mutlaq emas yoki Rossiya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi, AQSh va Turkiya muhim o’yinchilar, ammo ularning hech biri hal qiluvchi nazoratga ega emas. Masalan, 2024-yil holatiga ko‘ra, Xitoy-Markaziy Osiyo savdosi (94 milliard dollar) Rossiya-Markaziy Osiyo savdosidan (45 milliard dollar) ikki baravar ko‘p. Bu ma’lumot realizmning “kuch yetakchilik qiladi” degan g’oyasini qo‘llab-quvvatlaydi, ammo aynan shu mintaqada kuch markazlari o’zgarayotganini va iqtisodiy yo‘nalish kollektiv hamkorlikni kuchaytirayotganligini bildiradi. Chunki davlatlar birgalikda tashqi kuchlarga qarshi turish mexanizmlarini izlamoqda. Mintaqaviy hamkorlik - bu ichki maqsad emas, balki tashqi kuchlar bilan samaraliroq ishlash vositasi o’laroq Markaziy Osiyo mamlakatlarida ko’zga tashlanmoqda. Shu tariqa, mintaqaviy integratsiya tashqi bosimga qarshi turishdan ko‘ra, uni muvozanatlashtirishning strategik vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

II. Natsionalizmning ta’siri:

Natsionalizm (Millatchilik) Markaziy Osiyoda ikki qarama-qarshi yo‘nalishda ishlaydi: bir tomondan, davlatlar o‘z suverenitetini va milliy o‘ziga xosligini mustahkamlashga intiladi; ikkinchi tomondan, aynan shu milliy identitetlar mintaqaviy integratsiyaning eng katta to‘sig‘i sifatida namoyon bo‘ladi. Cambridge Core jurnalida Rico Isaacs and Abel Polese tomonidan chop etilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyoda millat qurilishi ikki darajada amalga oshiriladi:

1. Yuqoridan pastga (“imagined”): Elita tomonidan yaratiladigan rasmiy tarix, milliy ramzlar, til siyosati va oddiy fuqarolarning bu siyosatni qabul qilishi. Misol: O‘zbekistonda Temuriylar renessansi, Qozog‘istonda Zhanybek (Jonibek) va Kerey Khan (Kerey Xon) haykallari, Turkmanistonda “Ruhnoma”asari orqali milliy mafkuraning targ‘ib qilinishi ushbu “yuqoridan pastga” modelning amaliy ifodasidir. Bu jarayon natsionalizm doirasida milliy identitetni mustahkamlashga xizmat qiladi.

1. Pastdan yuqoriga (“real”): Fuqarolik darajasida qabul qilinadigan, ba’zan elita siyosatiga zid bo‘lgan identitetlar. Masalan, norasmiy so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, Qozog‘iston va O‘zbekiston aholisining 70% dan ortig‘i mintaqaviy aloqalarni chuqurlashtirishga ijobiy qaraydi. Bu esa jamiyat darajasida mintaqaviy identitet elementlari allaqachon shakllanayotganini anglatadi.

Mazkur ikki daraja o‘rtasidagi tafovut Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamjamiyat shakllanishining murakkabligini ko‘rsatadi. Ya’ni, davlatlar darajasida natsionalizm ustuvor bo‘lib qolayotgan bir paytda, jamiyat darajasida integratsiyaga nisbatan ochiqlik kuchayib bormoqda. Bu holat mintaqaviy identitetning kelajakda aynan “pastdan yuqoriga” rivojlanish ehtimoli yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Natsionalizm nafaqat to‘siq, balki mintaqaviy identitetning qurilish materiali ham bo‘lishi mumkin. Bu holat Turkiy davlatlar tashkiloti (OTS) misolida bu yaqqol ko‘rinadi: Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekistonni birlashtiruvchi bu tuzilma milliy identitetlarni inkor etmaydi, aksincha, ularni “turkiy oila”ning bir qismi sifatida qayta ramkaga soladi. 2024-yilgi OTS sammitida Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev tashkilotni “geosiyosiy markaz” deb ataganida, bu millatchilik va mintaqaviylikning uyg‘unligiga ishora edi. Shu tariqa, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamjamiyat shakllanishi faqat siyosiy qarorlar natijasi emas, balki jamiyat ichida allaqachon shakllanayotgan identitet dinamikasining mahsuli sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Markaziy Osiyoda millatchilik faqat identitetni mustahkamlovchi omil emas, balki ayrim hollarda ziddiyat manbai sifatida ham namoyon bo‘lgan. Xususan, 2021–2022 yillarda Qirg’iziston va Tojikiston o‘rtasidagi suv resursi taqsimoti masalasida yuzaga kelgan chegara to‘qnashuvlari etnik millatchilikning agressiv shakli va resurslar ustidan da’volar qanday qilib mintaqaviy barqarorlik va hamkorlikka jiddiy putur yetkazishini yaqqol namoyon etdi. Bu holat siyosiy realizm doirasida davlatlarning xavfsizlik va hududiy yaxlitlikni ustuvor qo‘yishini, natsionalizmda esa identitet va tarixiy da’volar orqali ziddiyatni keskinlashtirishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 2025-yilda Tojikiston va

Qirg’iziston o‘rtasida chegara kelishuvining ratifikatsiya qilinishi ushbu ziddiyatni boshqarish va kamaytirishga qaratilgan muhim siyosiy qadam sifatida baholanadi. Bu jarayon shuni ko‘rsatadiki, hatto keskin millatchilik fonida ham davlatlar pragmatik manfaatlar asosida kelishuvga erisha oladi. Mazkur ikki qarama-qarshi jarayon - konflikt va kelishuv - Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamjamiyat shakllanishining murakkab, ammo dinamik xarakterga ega ekanligini anglatadi. Ya’ni, millatchilik qisqa muddatda nizolarni kuchaytirsa, uzoq muddatda aynan shu xavflar davlatlarni ko‘proq muloqot va institutsional hamkorlikka undashi mumkin.

III. Xalqaro jamiyat va Jahon jamiyati orasidagi farq:

Xalqaro munosabatlar va Markaziy Osiyo mintaqaviy siyosati bo‘yicha ishlari bilan tanilgan tadqiqotchi Filippo Costa Buranelli (Oksford universiteti) tomonidan 2015-yilda yozilgan doktorlik dissertatsiyasida (“International Society and Central Asia”, King’s College London) tomonidan ingliz maktabi (English School) nazariyasi asosida Markaziy Osiyo mintaqaviy tartibini tahlil qilgan. U “Xalqaro jamiyat” (davlatlararo institutlar) va “Jahon jamiyati” (fuqarolar darajasidagi aloqalar) o‘rtasidagi farqni kiritadi. U tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv realizm va millatchilikni yengishga urinayotgan mintaqaviy identitetning chuqur paradoksini ochib beradi. Unga ko’ra Xalqaro Jamiyat (International Society) tushunchasi xalqaro munosabatlarda asosan suveren davlatlar o‘zaro tan olingan qoidalar, me’yorlar, chegaralar, viza rejimlari, institutlar asosida faoliyat yuritadigan tizimni ifodalaydi. Ushbu yondashuvda asosiy e’tibor davlatlarning suvereniteti, xavfsizlik va diplomatik muvozanatga qaratilib, xalqaro tartibni saqlash davlatlar o‘rtasidagi kelishilgan “o‘yin qoidalari” orqali amalga oshiriladi. Bunga qarama-qarshi ravishda Jahon Jamiyati (World Society) tushunchasi esa xalqaro tizimni faqat davlatlar emas, balki individlar, fuqarolik jamiyati institutlar, transmilliy aktorlar va diniy va madaniy aloqalar darajasidagi global/mintaqaviy bog‘lanishlarni ham qamrab oluvchi keng ijtimoiy makon sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvda asosiy urg‘u global qadriyatlar, inson huquqlari va

transchegaraviy ijtimoiy aloqalarga berilib, davlat markazli qarashdan inson markazli yondashuvga o‘tish kuzatiladi. Sovet Ittifoqidan oldin Markaziy Osiyoda “Jahon jamiyati”ning kuchli shakli mavjud edi – ko‘chmanchi va o‘troq xalqlar o‘rtasidagi simbioz, islomiy identitet (ummat), turkiy til birligi kabi umumiy elementlar mavjud edi. Sovet davridagi “milliy-chegaralanish” siyosati (1920-1930 yillar) bu tabiiy aloqalarni sun’iy ravishda kesib tashladi. Mustaqillikdan keyin esa ikki qarama-qarshi jarayon parallel ravishda yuz berdi:

1. Ortiqcha institutsionalizatsiya (“over-institutionalization”): davlatlar o‘rtasida chegaralarning qat’iylashuvi, viza rejimlarining joriy etilishi va til siyosatining milliylashtirilishi kuzatildi. Bu tendensiya “Xalqaro jamiyat”ning davlat markazli va suverenitetga asoslangan modelining kuchayganini anglatadi.
2. Norasmiy qarshilik: rasmiy siyosiy cheklovlarga qaramay, norasmiy ijtimoiy aloqalar davom etib kelmoqda. Chegara hududlaridagi savdo maydonlari (masalan, O‘sh va Jalolobod atrofidagi bozorlar), qarindoshlik tarmoqlari va umumiy diniy-amaliy marosimlar mintaqa ichida “Jahon jamiyati” elementlarining saqlanib qolganini ko‘rsatadi.

Shu tariqa, Markaziy Osiyoda rasmiy “Xalqaro jamiyat” va norasmiy “Jahon jamiyati” o‘rtasida doimiy parallel mavjudlik shakllanib bormoqda. Siyosiy realizm “Xalqaro jamiyat”ni davlatlararo munosabatlarni tahlil qiladi. Millatchilik esa bu jamiyatning asosiy tarkibiy tamoyilidir. Biroq ularning birgalikdagi “ortiqcha institutsionalizatsiyasi” aynan fuqarolar darajasidagi mintaqaviylikni - “Jahon jamiyati”ni bostirib, mintaqaviy identitetni yuqoridan emas, quyidan shakllantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Markaziy Osiyoda ”Jahon jamiyati” ning cheklovlari aynan realizm va millatchilikning haddan ziyod kuchli qo‘shilib ketishidan kelib chiqadi. Agar bu ikki kuch yumshoqroq shaklda namoyon bo‘lganda edi, mintaqaviy identitet tabiiy ravishda rivojlanishi mumkin edi. Ammo ularning hozirgi kombinatsiyasi - qattiq suverenitet va etnik millatchilik “Jahon jamiyati”ni faqat norasmiy, yashirin shakllarda mavjud bo‘lishga majbur qilmoqda.

XULOSA

Markaziy Osiyoda mintaqaviy identitet shakllanishi realizm va millatchilikning oddiy qarama-qarshiligi sifatida emas, balki ularning murakkab dialektikasi sifatida tushunilishi kerak. Siyosiy realizm davlatlarni raqobatga undaydi, ammo aynan shu raqobat xususan, tashqi kuchlar ta’siriga qarshi turish zarurati ularni mintaqaviy hamkorlikka majbur qilmoqda. Millatchilik identitetlarni parchalaydi, ammo “turkiy oila” yoki “umumiy islomiy meros” kabi qoliplar orqali milliy identitetlar mintaqaviylikning asosiga aylanmoqda. Eng muhimi realizm va millatchilikning birgalikdagi “ortiqcha institutsionalizatsiyasi” fuqarolar darajasidagi mintaqaviylikni (“Jahon jamiyati”) bostiradi. Shuning uchun Markaziy Osiyoda mintaqaviy identitet elita tomonidan emas, balki quyidan – norasmiy aloqalar, migratsiya, chegara savdosi va umumiy raqamli madaniyat orqali shakllanmoqda. Shu o’rinda savol tug’iladi, Realizm va Millatchilikning hozirgi ko’rinishi mintaqaviy identitetga yordam beradimi yoki to‘sqinlik qiladimi? Javob ikkalasiga ham “ha”. Ular to‘siq bo‘ladi, ammo aynan shu to‘siqlar mintaqaviy identitetni yanada chidamli, moslashuvchan va eng muhimi mahalliy qilmoqda. Xitoy yoki Rossiya tomonidan yuqoridan yuklanadigan identitetlardan farqli o‘laroq, Markaziy Osiyo identiteti o‘zining qiyinchiliklari va ziddiyatlari bilan birga mintaqaning o‘z ichidan o‘sib chiqmoqda. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo identiteti shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon hisoblanadi. Siyosiy realizm va natsionalizm ushbu jarayonni cheklovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lsa-da, umumiy tarixiy, madaniy va ijtimoiy asoslar mintaqaviy hamjamiyat shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Kelajakda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun davlatlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlash, madaniy almashinuvni kengaytirish va umumiy integratsiyani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar / References:

1. Embassy of the Republic of Uzbekistan in Israel. (2026). *Foreign Trade Turnover of the Republic of Uzbekistan*. Available at: https://www.uzbembassy.org.il/news/1296?language=en (Accessed: 1 May 2026).
2. UN Comtrade. (2026). *UN Comtrade Database*. Available at: https://comtradeplus.un.org/ (Accessed: 1 May 2026).
3. General Administration of Customs of China. (2025). *China's Trade with Central Asia Hits $94.8 Billion in 2024*. Available at: https://en.orda.kz/chinas-trade-with-central-asia-hits-948-billion-in-2024-4874/ (Accessed: 2 May 2026)
4. Eurasianet. (2026). *Breaking Down the Dynamics of Russian–Central Asian Relations*. Available at: https://eurasianet.org/ (Accessed: 2 May 2026).
5. Isaacs, R. and Polese, A. (2015). *Between "Imagined" and "Real" Nation-Building: Identities and Nationhood in Post-Soviet Central Asia*. Cambridge Core. Available at: https://share.google/jV6xJacdDKqTaB4YQ (Accessed: 2 May 2026).
6. Aliyev, I. (2024). *Speech at the 12th Summit of the Council of Heads of State of the Organization of Turkic States*. Available at: https://president.az/en/articles/view/70315 (Accessed: 2 May 2026).
7. Buranelli, F. C. (2015). *International Society and Central Asia*. PhD thesis, King's College London. Available at: https://kclpure.kcl.ac.uk/portal/en/studentTheses/international-society-and-central-asia/ (Accessed: 2 May 2026).
8. World Bank. (2026). *Central Asia Regional Economic Update*. Available at: https://www.worldbank.org/en/region/eca/publication/central-asia-economic-update (Accessed: 1 May 2026).
9. Asian Development Bank. (2026). *CAREC Program and Regional Cooperation in Central Asia*. Available at: https://www.adb.org/what-we-do/themes/regional-cooperation/main (Accessed: 3 May 2026).
10. International Crisis Group. (2026). *Central Asia: Regional Cooperation and Conflicts*. Available at: https://www.crisisgroup.org/asia/central-asia (Accessed: 2 May 2026).